

**QASHQAR RUBOBINING MILLIY CHOLG‘U ANSAMBLI HAMDA  
ORKESTRDAGI O‘RNI**

*Buxoro davlat universiteti magistranti*

*Sattorov Hikmatillo*

*Ilmiy rahbar: Musiqa ijrochiligi*

*va madaniyat kafedrasи*

*dotsenti Olimxo‘ja Karimov*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada qashqar rubobining ijro imkoniyati, milliy cholg‘ular ansamblidagi o‘rni va orkestr tarkibidagi ahamiyati to‘g‘risida so‘z boradi. Shu bilan bir qatorda ustoz sozandalarning ijro imkoniyatini takomillashtirish uchun amalga oshirgan ishlari haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация**

В данной статье говорится о возможности игры на кашгарском рубине, его месте в национальном музыкальном ансамбле и значении в составе оркестра. Кроме того, речь шла о работе, проделанной мастерами-музыкантами по совершенствованию своего исполнения.

**Annotation**

This article talks about the possibility of playing the Kashgar ruby, its place in the national musical ensemble and its importance in the orchestra. In addition, it was about the work done by master musicians to improve their performance.

**Kalit so‘zlar:** qashqar rubob, orkestr, ansambl, arfa, tanbur, dutor, afg‘on rubob, chang.

O‘zbek xalq cholg‘ularida zamonaviy ijrochilik san’ati o‘z taraqqiyotining ko‘p asrlik an‘analarini meros qilib oldi. Ularning ildizlari qadim - qadim davrlarga borib taqaladi. Bunday deyishimizga sabab ulug‘ musiqashunos va manbaashunoslarning ma’lumot berishicha qadim shahar va qo‘rg‘onlarda turli arxeologik qazilmalaridan topilgan materiallar, qadimiy adabiy tarixiy manbalarda Sharq xalqlarining milliy sozlari va ulardagи ijro tarzlari yozib qoldirilganligini aytib o‘tishdir.

Dastlabki rivojlanish davrida u arfa, tanbur, dutorlar qatori ruboblar ham paydo bo‘lib ilk bora urma cholg‘u asboblari: doira, nog‘ora, tavl singari cholg‘ular bilan qo‘shib unisan havaskorchilik ansambllarining og‘zaki shakli tashkil etilgan. Ushbu cholg‘u ansambllarida ruboblar alohida mavqega ega bo‘lgan. Keyinchalik esa, turli cholg‘u ansambllarining professional guruhlari tuzila boshlandi.

Cholg‘u ansambllari jamoalarning har biri muntazam mashg‘ulotlar olib borib xalq orasida o‘zbek musiqasini targ‘ib etish maqsadida qator konsertlar

uyushtiriladigan bo'ldi. Bunday cholg'u ansambilari Farg'ona vodiysida (To'xtasin Jamilov, usta Ro'zmatxon Isaboevlar), Samarqand (Xoji Abdulaziz Abdurasulov, qori Siroj Yusupovlar raxbarligida), Buxoroda (M.Toshpo'latov va N.Nasriddinovlar raxbarligida) bir so'z bilan aytganda Respublikamizning ko'pgina viloyatlarida tuzilgan edi. Lekin bu cholg'u ijrochiligi turi bizning musiqamizni katta sahnalarga ijro etish imkoniyatini bermas edi.

Chunki, ko'pgina ansamblarda an'anaviy cholg'ulardan foydalanib ularning musiqiy asarlarini, ham kompozitorlik ijodiyotini nota bilan chalishga imkoniyat bermas edi. Shundan kelib chiqib o'zbek milliy sozlarini ta'mirlab, takomillashtirib, ularning pardalari, ovoz hajmi va boshqa imkoniyatlarini kengaytirish zaruriyati tug'ildi. Bunday taklif va tashabbus dastlab yirik matematik olim qori Niyoziy, shoir va drammaturglar Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat, G'ulom Zafariy, musiqashunoslar V.M.Belyayev, V.Uspenskiy, A.Mironov, Yu.Rajabiy, T.Jalilovlardan chiqqan edi.

Musiqa asboblarini takomillashtirishda xalq cholg'usida ustalar usta Usmon Zafarov, usta Xayrulla, usta Kayum, usta Toxirjon Davlatzoda, Matyusuf Xarratovlar birinchilardan bo'lib kirishdilar. Bunday urunishlar o'zbek musiqa asboblarini takomillashtirish yo'lidagi dastbki harakatlar bo'lib, bu boradagi muammoni asosan hal qilmasada, ishni muayyan darajada ilgari siljishiga xizmat qiladi. 30-yillarning o'rtalariga kelib o'zbek cholg'ularini muntazam takomillashtirish ishlari qizg'in tus oldi. Yirik musiqa cholg'ushunosi, dirijor, pedagog A.I.Petrosyans raxbarligida bir guruh soz ustalari Usmon Zufarov, V.A.Yumanchenko, A.A.Kexovyans, S.G.Didenko, V.V.Andreyevlarning tajriba va ijodiy yutuqlariga tayanib tanbur, dutor, rubob singari cholg'u asboblarini ta'mirlashga kirishildi. Asos sifatida sof yarimton hosil qiluvchi, ya'ni xromatik teng yarim tovush qatoriga ega bo'lган o'n ikki bosqichli ravon pardalarga bo'lingan tovush qator qabul qilindi. Bu ish ijobiy natija bergandan so'ng har bir o'zbek cholg'usining yangi turlari ixtiro qilinib, ularning oilaviy tuzilishini yasashga kirishdi. Ushbu tadqiqot va amaliy ishlar natijasi o'laroq, milliy cholg'ularning boshqa turlari singari qashqar asbobining ham yangi imkoniyatlarga boy (pardalarning ko'pligi, ovoz hajmi kattaligi va texnik ijroga moslashtirilgan) bo'lган quyidagi turlari:

Qashqar rubobi, Prima rubobi, Messo soprano rubobi, Alt rubobi, Afg'on rubobi singari ruboblar oilasiga mansub bo'lган sozlar yaratildi. Bu esa, ruboblarning yakka ijordan tashqari xalq cholg'u asbobi ansambli va orkestrida ularni o'rnini belgilashda alohida ahamiyat kasb etdi. (Orkestrlar to'g'risida biz keyinroq ma'lumot beramiz). Ta'mirlangan yoki yangi milliy sozlar avvaliga A.I.Petrosyans tashabbusi bilan Toshkent musiqa bilim yurtida tashkil etilgan o'quv cholg'u orkestrida sinaladi. O'zbekiston davlat filarmoniyasining A.I.Petrosyans rahbarlik qilgan o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri esa, cholg'ularni ta'mirlashda haqiqiy tajribaxonasi vazifasini

o‘tadi. Yangi tipdagi orkestr tuzilganidan boshlab (1938 yil noyabr) ilmiy tajriba ishlari o‘zbek davlat filarmoniyasi zimmasiga yuklatildi.

Dastlabki takomillashgan cholg‘ulardan iborat bo‘lgan o‘zbek xalq cholg‘u orkestri quyidagicha tuzilgan edi.

<b>Nay I</b>	<b>Fortepiano</b>
<b>Nay II</b>	<b>Trubalar</b>
<b>Qashqar rubobi</b>	<b>Tranbonlar</b>
<b>Afg‘on rubobi</b>	<b>G‘ijjak I</b>
<b>Prima rubobi</b>	<b>G‘ijjak II</b>
<b>Tanbur</b>	<b>Katta g‘ijjak</b>
<b>Chang I</b>	<b>G‘ijjak tenor</b>
<b>Chang II</b>	<b>G‘ijjak bas</b>

Ushbu tarkibda ruboblar guruhi rubobi ham alohida joy egallaganligini ko‘rib turibmiz. Keyinchalik esa, ruboblarning turdosh ko‘rinishlari prima, alt, messo soprano sozlari ham orkestr tarkibidan mustahkam o‘rin egalladi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochilik madaniyatining o‘sishi, yakka ijro, qo‘shovozli ansambl va orkestrlarning ijrochilik san’atining rivojlinishi, jahon klassik bastakorlari asarlarining o‘zlashtirilishi, O‘zbekiston bastakorlarining xalq cholg‘ulari uchun maxsus kuylar yaratishdagi faol ijodlari o‘zbek cholg‘ularida ijrochilik madaniyatining yanada yuksalishida muhim zamin bo‘ldi. Shu bilan birga yuqori malakali ilmiy pedagogik va ijrochi kadrlarni puxta va mukammal qilib tayyorlash masalasini ham kun tartibiga qo‘ydi.

1948 yildan boshlab mamlakatimizdagi barcha musiqa muassasalarida, jumladan M.Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasida ham xalq cholg‘ulari ijrochiligi bo‘yicha ta’lim berish boshlandi. Konservatoriya xalq cholg‘u asboblari ta’limini yo‘lga qo‘yishda V.F.Gienko, G.Sobitovlar katta rol o‘ynadilar. Jumladan rubob bo‘yicha ham mutaxassis tayyorlash ishiga e’tibor kuchaytirib iste’dodli pedagogik - ijrochilar tayyorlandi. Shunday qilib Respublikada qator professional cholg‘u ansamblari va orkestrlarni tashkil etib, unda milliy sozlarimiz ishtirokida milliy musiqamiz bilan birga O‘zbekiston xalqi bastakorlarining nodir asarlarini yuksak saviyada ijro etishga imkoniyatlar yaratildi.

Bugungi kundagi O‘zbekiston davlat filarioniyasi qoshidagi “Shodlik”, “Lazgi”, “Zarafshon” ashula va raqs ansamblari “Go‘zal” vokal xorografik ansambli “Buxoro” xalq raqs ansambl, O‘zbekiston televideniyasi va radio eshittirish davlat qo‘mitasi qoshidagi “Maqomchilar” va “Dutorchi” qizlar ansamblari, shuningdek, o‘zbek davlat filarmoniyasi va radio qoshidagi xalq cholu orkestrlari qator badiiy jamoalarda boshqa milliy sozlar singari jamoalarda ruboblar ham yetakchi sozlardan hisoblanadi. Darhaqiqat har bir professional yoki havaskorlik chog‘u jamoalarida biz ruboblar ovozi, qolaversa, uning milliy ornament - sayqallarga boy ijrosini eshitganimizda

undan katta zavq olamiz. Sozandaning, xususan an'anaviy ijrodagi har bir nolayu molishlari forshlagu naxshlaglari bizda katta ta'surot qoldiradi.

Viloyatimizda “O‘zbeknavo” qoshida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan “Buxorcha”, “Maqom” dastalari Buxoro davlat Universiteti, Buxoro ixtisoslashgan san’at maktabi, Buxoro maqom maktabi qoshida tashkil etilgan talabalar ansambllari-yu orkestrlarida ham ruboblar asosiy sozlardan biri ekanligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha badiiy jamoalar cholg‘u dastalarini Qashqar rubobi, afg‘on rubobisiz tasavvur qilish qiyin.

Bu esa qashqar rubobining cholg‘u ansambl va orkestirlaridagi o‘rni baland ekanligidan dalolatdir.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. 1.Каримов, О. И. (2020). Значение специфических особенностей и воспитательных возможностей узбекских народных инструментов. *Academy*, (3 (54)), 78-80.
2. Каримов, О. И. (2020). Профессиональные музыкальные взгляды будущего учителя музыки. *Вестник науки и образования*, (22-2 (100)), 17-20.
3. Karimov, O. J. I. (2021). Tanbur sozining paydo bo ‘lishi va milliy cholg ‘u ijrochiligidagi o ‘rni. *Scientific progress*, 1(5), 767-771.
4. Каримов, О. И. (2021). Садриддин Айни-знаток и любитель народной музыки. *Вопросы науки и образования*, (13 (138)), 21-24.
5. Каримов, О. И. (2022). Бўлажак мусиқа ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантириш. *Scientific Impulse*, 1(2), 377-381.